Xalqaro hamkorlik samarasi: olimlar e’tirofi

Latviya Respublikasi Hukumati va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi ilmiy-texnikaviy hamkorlik doirasida Latviya Respublikasi tomonidan e’lon qilingan ilmiy-tadqiqotlar tanlovida g’olib bo‘lgan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining katta ilmiy xodimi Urol Maxmanov hozirda Latviya universitetida bo’lib turibdi. Universitetda yangi fizikaviy xossalarga ega bo‘lgan nanozarrachalar va nanomateriallar sintez qilish bo‘yicha Latviya olimlari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqotlar olib bormoqda. Yuqori aniqlikdagi mikroskopik va spektroskopik qurilmalar yordamida qattiq taglik sirtida nanozarrachalar eritmalari tomchilaridan erituvchi bog’lanishi jarayonida yangi xossalarga ega nanoklasterlar hosil bo‘lishi aniqlandi.

Urol Maxmanovning shu yo`nalishda olingan ilmiy natijalari asosida Latviya universitetida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalarda qilgan ma’ruzasi Latviya olimlari tomonidan e’tirof etildi.